





CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo aylanmasi **5826,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **14,2** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **969,2** mlrd. so'mni (**33,4** % ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4856,8** mlrd. so'mni (**11,0**% ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1005,7** mlrd. so'mni (**23,8** % ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5826,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **14,2 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **83,4 %** va yirik korxonalar hissasiga **16,6 %** to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shaxri **25,7 %** ulush bilan **1500,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.





ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **0,9 %** ulush bilan **52,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **4856,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 111,0 % ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **83,4 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,7 %), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,7 %), Yangiobod (98,6 %), G'allaorol (96,5 %), Forish (99,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalarmlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiyy tadbirkor lik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	5826,0	114,2	969,2	133,4	4856,8	111,0
Jizzax sh.	1500,1	106,3	142,2	86,0	1358,0	109,0
tumanlar:						
Arnasoy	107,1	108,8	1,2	103,0	105,9	108,9
Baxmal	1129,3	140,9	730,3	146,7	399,0	131,4
G'allaorol	397,0	113,0	13,8	153,3	383,3	112,0
Sharof Rashidov	888,4	109,9	2,9	251,9	885,6	109,7
Do'stlik	173,0	106,4	4,8	84,7	168,2	107,2
Zomin	771,1	111,5	63,7	245,0	707,4	106,3
Zarbdor	194,9	109,7	1,3	28,0	193,6	111,8
Mirzacho'l	142,7	113,0	0,9	24,8	141,8	115,7
Zafarobod	85,4	108,7	1,1	89,5	84,2	109,0
Paxtakor	205,6	115,3	5,1	85,3	200,4	116,4
Forish	179,2	107,2	1,2	29,8	177,9	109,2
Yangiobod	52,3	106,8	0,7	78,8	51,6	107,4

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **33,4 %** ga oshdi va **969,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **16,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4856,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 111,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **83,4 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,7%), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,7 %), Yangiobod (98,6 %), G'allaorol (96,5 %), Forish (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 16,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (9,5 %), Zomin (8,3 %), Baxmal (64,7 %) va Do'stlik (2,8 %) tumanlarida kuzatildi.





JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022-yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4016,3** ming so'm (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **111,6** % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**7975,2** ming so'm), Baxmal (**6890,0** ming so'm), Zomin (**4478,0** ming so'm) va Sharof Rashidov (**3827,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	4 016,3	111,6
Jizzax sh.	7 975,2	102,5
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	2 254,0	107,0
Baxmal	6 890,0	137,8
G'allaorol	2 208,3	110,6
Sharof Rashidov	3 827,9	107,9
Do'stlik	2 547,9	104,7
Zomin	4 478,0	108,7
Zarbdor	2 143,6	106,9
Mirzacho'l	2 657,3	111,1
Zafarobod	1 648,1	106,6
Paxtakor	2 638,8	112,5
Forish	1 872,0	105,4
Yangiobod	1 797,4	105,4



Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1005,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **23,8** % ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **469,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,5** % ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **536,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **18,6%** ga oshdi) .



**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



8,6 mlrd.
so'm

Tuzlamalar



144,8
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



22,7
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

48,3
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



22,4
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

33,3
mlrd. so'm



Tuxum

51,3
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

86,3
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

3,2
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

2022-yilning yanvar-iyul oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 469,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (144,8 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

14,8
mlrd. so'm



Ziravorlar

33,8
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2022-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **536,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **354,7** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **169,0** mlrd. so'mni, otlar **10,4** mlrd. so'mni, parrandalar **2,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,1 %** ni tashkil etib, **123,5** mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **8,9 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln. so‘m	2021- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	123 510,5	108,9	120 240,3	109,0
Jizzax sh.	59 216,5	108,1	58 556,2	108,1
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	791,6	102,0	670,2	102,0
Baxmal	2 666,9	123,5	2 300,2	126,3
G‘allaorol	7 250,4	104,6	6 950,8	104,5
Sh. Rashidov	21 862,5	108,5	21 390,9	108,5
Do‘stlik	4 377,0	113,7	4 201,7	114,0
Zomin	8 743,3	112,5	8 397,2	112,9
Zarbdor	4 106,8	117,4	3 953,4	117,8
Mirzacho‘l	4 602,5	103,8	4 458,9	103,7
Zafarobod	1 728,7	114,1	1 608,3	114,7
Paxtakor	4 047,8	110,0	3 870,0	110,2
Forish	2 771,9	106,7	2 589,8	106,8
Yangiobod	1 344,7	106,1	1 292,7	106,2

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1389,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **5,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **294,1** mlrd. so'mni (**13,3 %** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1095,5** mlrd. so'mni (**12,2 %** ga oshdi) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar





**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Paxtakor (**448,0%**) va Mirzacho'l (**116,9 %**) tumanlarida kuzatildi.



Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1389,6	105,7	294,1	86,7	1095,5	112,2
Jizzax sh.	730,6	98,8	89,7	49,9	641,0	114,4
tumanlar:					0,0	
Arnasoy	3,1	116,1	0,02	42,0	3,1	117,6
Baxmal	134,1	113,7	106,2	113,6	27,9	113,9
G'allaorol	40,7	116,5	0,1	74,8	40,5	116,7
Sh. Rashidov	83,2	109,0	0,3	503,4	82,9	108,7
Do'stlik	120,6	98,4	56,9	88,2	63,7	109,8
Zomin	120,2	105,3	0,0	55,6	120,2	105,3
Zarbdor	18,6	116,3	0,0	62,3	18,6	116,3
Mirzacho'l	4,1	116,9	0,1	90,1	4,0	117,7
Zafarobod	9,3	107,9	0,0	6,0	9,3	110,3
Paxtakor	53,2	448,0	40,3	14064,9	12,8	110,7
Forish	63,9	106,7	0,3	80,7	63,6	106,9
Yangiobod	7,9	114,9	0,0	37,6	7,9	115,6



YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **1095,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **12,2** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **78,8** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**99,9** %), Yangiobod (**99,7** %), G'allaorol (**99,7** %), Forish (**99,6** %), Sharof Rashidov (**99,6** %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26